XALQ DEPUTATLARI YANGIYER SHAHAR KENGASHI

Q A R O R I

121000, Yangiyer shahar Yangi asr ko'chasi, telefon: 350-10-76

2021 - yil 30 - dekabr VI-48-96-9-132-K/21 Yangiyer shahar hokimligi

2022 yilgi shahar mahalliy budjetini tasdiqlash hamda mahalliy daromadlar va xarajatlarning prognoz ko'rsatgichlarini belgilash to'g'risida

2022 yilgi shahar mahalliy budjeti daromadlari va xarajatlarining prognoz ko'rsatgichlarini belgilash maqsadida, O'zbekiston Respublikasi Budjet Kodeksining 99-moddasi, "Mahalliy davlat hokimiyati to'g'risida"gi Qonunining 24 va 25-moddalariga muvofiq Xalq deputatlari Yangier shahar Kengashi **qaror qiladi:**

1. Shahar mahalliy budjetining daromadlar prognoz ko'rsatkichlari 1-ilovaga muvofiq;

2. Shahar mahalliy budjetining daromadlar va xarajatlarining umumiy prognozlari 2-ilovaga muvofiq;

3. Shahar mahalliy budjeti mablag'larini taqsimlovchilarga ajratiladigan xarajatlarning umumiy cheklangan miqdorlari 3-ilovaga muvofiq;

4. Shahar mahalliy budjetlariga ajratiladigan tartibga soluvchi budjetlararo transfertlar miqdorlari 4-ilovaga muvofiq;

5. Mol-mulkni ijaraga beruvchi jismoniy shaxslar uchun belgilangan ijara to'lovining eng kam stavkalari 5-ilovaga muvofiq (soliq solish maqsadlari uchun);

6. Tovarlarning ayrim turlari bilan chakana savdo qilish xuquqi uchun undiriladigan yig'imlarning cheklangan stavkalari 6-ilovaga muvofiq;

7. Avtotransport yig'imlarning stavkalari 7-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

2. O'zbekiston Respublikasining "2022 yil uchun O'zbekiston Respublikasining Davlat budjeti to'g'risida"gi Qonuniga asosan (keyingi o'rinlarda – Qonun) O'zbekiston Respublikasi hududiga tovarlarni olib kirishda qo'llaniladigan bojxona bojlari stavkalari O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori bilan tasdiqlanadi.

3. Qonunning 6-moddasiga asosan 2022 yil uchun respublika budjetidan viloyat mahalliy budjetiga ajratiladigan tartibga soluvchi budjetlararo transfert 673,2 mlrd. Shundan shahar

mahalliy budjetiga 46.2 mlrd so‘m miqdorida tasdiqlanganligi inobatga olinsin.

4. 2022 yil uchun shahar budjeti zahira jamg‘armasi hajmi 655.1 mln. so‘m miqdorida belgilansin.

5. Shahar budjetining 2022 yil uchun zahira jamg‘armasi tegishli budjetlar tasdiqlangan umumiy xarajatlarining kamida 1,0 foizi miqdorida shakllantiriladi.

6. Shahar mahalliy budjetining olti oylik ijrosi yakunlari bo‘yicha daromad prognozlari bajarilmagan va joriy moliya yilining oxirigacha ularning kelib tushishi uchun yetarli asoslar mavjud bo‘lmagan hollarda shahar mahalliy budjetining xarajatlarini qisqartirish bo‘yicha qarorlar tegishincha xalq deputatlari shahar Kengashi tomonidan qabul qilinishi belgilansin.

Bunda, xarajatlarni qisqartirishda budjet tashkilotlarining
va budjet mablag‘lari oluvchilarning budjet mablag‘larini o‘zlashtirishi, shuningdek qabul qilingan yuridik va moliyaviy majburiyatlari hisobga olinadi. Bunda, ish haqi va unga tenglashtirilgan to‘lovlarni kamaytirish O‘zbekiston Respublikasining Budjet kodeksi 120-moddasiga muvofiq amalga oshiriladi.

7. Qonunga muvofiq soliqlarning quyidagi turlari tuman
(shahar)lar budjetlariga:

jismoniy shaxslardan olinadigan mol-mulk solig‘i;

jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig‘i;

jismoniy shaxslarga tegishli mol-mulkni ijaraga berishdan oladigan yillik daromadi to‘g‘risidagi deklaratsiyaga asosan to‘laydigan, shuningdek yakka tartibdagi tadbirkorlar to‘laydigan jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i;

suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq, bundan elektr stansiyalari tomonidan to‘lanadigan soliq mustasno;

qurilish materiallari bo‘yicha yer qa’ridan foydalanganlik uchun soliq.

Viloyat budjetiga quyidagilar:

yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq;

yuridik shaxslardan olinadigan yer solig‘i;

elektr stansiyalari tomonidan to‘lanadigan suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq;

benzinni, dizel yokilg‘isini va gazni yakuniy iste’molchilarga realizatsiya qilishdagi aksiz solig‘i;

aylanmadan olinadigan soliq;

qonunchilikda belgilangan miqdorlardagi davlat bojlari (patent bojlaridan va litsenziyalar berganlik uchun davlat bojlaridan tashqari);

qonunchilikda belgilangan miqdorlarda O‘zbekiston Respublikasining Davlat budjetiga

undiriladigan jarimalar;

ayrim turdagi tovarlarning chakana savdosiga doir huquq uchun yig‘imlar;

qonunchilikda belgilangan miqdorlarda O‘zbekiston Respublikasining Davlat budjetiga undiriladigan boshqa yig‘imlar (bojxona organlari tomonidan undiriladigan yig‘imlar va g‘ildirakli transport vositalari, o‘ziyurar mashinalar va ularning tirkamalari uchun undiriladigan utilizatsiya yig‘imidan, shuningdek avtotransport vositalari oynalarining tusini o‘zgartirishga (qoraytirishga) ruxsatnoma berish uchun to‘lovdan tashqari);

qonunchilikda belgilangan miqdorlarda davlat daromadiga o‘tkazilgan mol-mulkni realizatsiya qilishdan tushgan tushumlar, mahalliy davlat hokimiyati organlarining ulushi bo‘yicha dividendlar (daromadlar) va ajratmalar;

davlat aktivlarini joylashtirishdan, foydalanishga (ijaraga) berishdan va sotishdan qonunchilikda belgilangan normativlar bo‘yicha olingan daromadlar;

jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘idan tushumlarning (jismoniy shaxslar mol-mulkini ijaraga berishdan oladigan yillik daromadi to‘g‘risidagi deklaratsiyaga asosan to‘laydigan, shuningdek yakka tartibdagi tadbirkorlar to‘laydigan jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘idan tashqari) 100 foizi;

boshqa daromadlar 100 foizi;

Foyda solig‘idan tushumlarning (O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti qarori bilan tasdiqlanadigan ro‘yxatga muvofiq yirik soliq to‘lovchilar, O‘zbekiston Respublikasida doimiy faoliyat olib boruvchi muassasa orqali faoliyat yurituvchi O‘zbekiston Respublikasi norezidentlari tomonidan, shuningdek norezidentlarning to‘lov manbaida ushlab qolinadigan daromadlaridan to‘lanadigan foyda solig‘idan tashqari) 100 foizi o‘tkazilishi belgilangan.

8. Mobil aloqa xizmatlari, tamaki va alkogol mahsuloti, shu jumladan pivo uchun aksiz solig‘i bo‘yicha tushumlar tegishincha 2021 yilning 1 iyul holatiga ko‘ra, tuman (shahar) aholisi sonining viloyat aholisi sonidagi ulushiga muvofiq o‘tkazib beriladi.

9. Qonunning 12-moddasiga asosan shahar budjetini barqarorligini ta’minlash maqsadida umumdavlat soliqlaridan ajratmalar me’yorlari 8-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

10. Qonunga muvofiq Xalq deputatlari shahar Kengashi shaharning ommaviy dam olish va (yoki) turizmga ixtisoslashtirilgan ayrim hududlarida ijara to‘lovi bo‘yicha eng kam stavkalarga hamda yakka tartibdagi tadbirkorlar to‘laydigan jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘ining qat’iy belgilangan miqdorlariga Toshkent shahri uchun belgilangan miqdorlargacha o‘sib boruvchi koeffitsientlarni kiritishga xaqli.

Agar qonunchilikda mahalliy budjetlarga o‘tkaziladigan daromadlarning taqsimlanishi nazarda tutilmagan bo‘lsa, daromadning ushbu turi viloyatning viloyat budjetiga o‘tkaziladi.

11. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 3 dekabrdagi PF-6121-sonli Farmoni 1-bandida belgilangan vakolatlar doirasida qishloq xo‘jaligi uchun mo‘ljallanmagan yerlar uchun tuman va shaharlar kesimida, ularning iqtisodiy rivojlanishiga qarab, yuridik

shaxslardan olinadigan yer solig‘ining mutloq miqdorida bazaviy soliq stavkasi 8-ilovaga, jismoniy shaxslardan (dehqon xo‘jaligini yuritish uchun berilgan qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallangan yerlardan tashqari) undiriladigan mutloq miqdorida 1 kv.m. uchun belgilangan bazaviy soliq stavkasi 9-10-ilovalarga muvofiq tasdiqlansin.

12. Mahalliy davlat hokimiyati organlarining tashabbusiga ko‘ra amalga oshiriladigan qo‘shimcha tadbirlarni moliyalashtirish faqat shahar mahalliy budjetlarining qo‘shimcha manbalari hisobidan amalga oshirilishi belgilab qo‘yilsin.

13. Shahar hokimliklari tegishli budjetlarini birinchi navbatda ish xaqi va unga tenglashtirilgan to‘lovlar, oziq-ovqat,
dori-darmon va kommunal xizmat xarajatlari rejalashtirilishini nazarda tutgan holda shakllantirsin.

15. Shahar hokimligi choraklar yakuni bo‘yicha daromad prognoz ko‘rsatkichlari mahalliy ijro hokimiyati organlarining faoliyatiga bog‘liq bo‘lmagan holda besh foizdan ortiq miqdorga bajarilmagan taqdirda va moliya yili oxirigacha prognoz ko‘rsatgichidagi mablag‘larning tushish ehtimoli bo‘lmasa, xarajatlarni maqbullashtirish yuzasidan ko‘rilgan choralar bilan birgalikda tartibga soluvchi budjetlararo transfertlar miqdorini oshirish yuzasidan O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasiga taklif kiritilishini ta’minlasin.

16. Qonunga muvofiq 2022 yildan boshlab:

viloyatning umumta’lim muassasalarini, maktabgacha ta’lim tashkilotlarini, sog‘liqni saqlash muassasalarini qurish, rekonstruksiya qilish va mukammal ta’mirlashga, shuningdek sug‘oriladigan yerlarning meliorativ holatini yaxshilashga oid tadbirlar doirasida ob’ektlardagi ta’mirlash-tiklash ishlariga doir xarajatlar viloyatning viloyat budjetidan;

advokatlar tomonidan ko‘rsatilgan yuridik yordam uchun haq to‘lash tegishincha, viloyatning viloyat budjetidan;

ro‘p kvartirali uy-joy fondiga tutash hududlarni ta’mirlash xarajatlari va O‘zbekiston Respublikasi Uy-joy kommunal xizmat ko‘rsatish vazirligi tizimiga kiruvchi issiqlik ta’minoti tashkilotlarining issiqlik tarmoqlari va qozonxona uskunalarini kapital ta’mirlash xarajatlari viloyatning viloyat budjetidan moliyalashtiriladi.

Hududlarda barcha issiqlik energiyasini yetkazib beruvchi korxonalar tomonidan ko‘rsatiladigan issiqlik ta’minoti xizmatlari uchun tartibga solinadigan narxlar (tariflar) ular bo‘yicha dastlab O‘zbekiston Respublikasi Monopoliyaga qarshi kurashish qo‘mitasining hududiy organlari xulosalariga ko‘ra, xalq deputatlari viloyat Kengashi qarori bilan ma’qullanganidan so‘ng shahar hokimi tomonidan tasdiqlanishi;

issiqlik ta’minoti bo‘yicha xizmatlar uchun tartibga solinadigan narxlarni (tariflarni) yil davomida qayta ko‘rib chiqish yakunlariga ko‘ra, issiqlik bilan ta’minlovchi korxonalar aholiga pasaytirilgan tariflar qo‘llanilishi natijasida ko‘rgan zararlarining o‘rnini qoplash uchun qo‘shimcha mablag‘larga bo‘lgan talab viloyatning viloyat mahalliy budjetining qo‘shimcha manbalari hisobidan qoplanishi belgilanganligi ijro uchun qabul qilinsin.

shaharning tegishli budjetining tasdiqlangan umumiy xarajatlarining 5 foizini jamoatchilik fikri asosida shakllantirilgan tadbirlarni moliyalashtirishga yo‘naltiriladi.

Hamda shahar mahalliy budjeti qo‘shimcha mablag‘larining kamida 30 foizi jamoatchilik fikri asosida shakllantirilgan tadbirlarni moliyalashtirishga yo‘naltiriladi.

17. Shahar hokimligi mahalliy budjetlarining qo‘shimcha manbalari hisobidan xarid qilingan tovarlar va xizmatlar, qurilish, rekonstruksiya qilish va ta’mirlash ishlari olib borilayotgan ob’ektlar ro‘yxati, shuningdek qurilish-ta’mirlash ishlarining moliyalashtirilishi to‘g‘risidagi ma’lumotlar har chorak yakunlariga ko‘ra, keyingi chorak birinchi oyining 10 sanasiga qadar tegishincha majburiy tartibda o‘z rasmiy veb-saytlariga joylashtirib borsin.

18. Ushbu qaror ijrosini tashkillashtirish shahar hokimining birinchi o‘rinbosari I.Nurmatov zimmasiga yuklatilsin.

19. Qaror qabul qilingan kundan boshlab kuchga kiradi.

20. Mazkur qaror bajarilishini nazorat qilish xalq deputatlari shahar Kengashining Mahalliy budjetni shakllantirish va ijro etish, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish va tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari doimiy komissiyasi (R.Botirov) zimmasiga yuklatilsin.

Кенгаш раиси **I.Xo'jayev**

Халқ депутатлари Янгиер шаҳар
Кенгашининг
2021 йил 30 декабрдаги
VI-48-96-9-132-K/21-сон қарорига
1-илова

Шаҳар маҳаллий бюджети даромадлари прогноз кўрсаткичлари

№	Даромад тури	Миқдори
	Жисмоний шахслардан олинадиган даромад солиғи	*24 952 216*
	ажратма меёри	20
1.	маҳаллий бюджетга	*4 990 443*
	Юридик шахслардан олинадиган фойда солиғи	22 187 001
	ажратма меёри	
2.	маҳаллий бюджетга	0
II.	**Бириктирилган даромадлар**	**10 991 811**
	Туман ва шаҳарларга бириктирилган	**10 416 499**
1	Айланмадан олинадиган солиқ	6 014 566
2	Жисмоний шахслардан олинадиган даромад солиғи (ИТД)	872 338
3	Жисмоний шахслардан олинадиган ер солиғи	1 391 183
4	Ер ости бойликларидан фойдаланганлик учун солиқ норуда	20 290
5	Жисмоний шахсларнинг мол-мулкига солинадиган солиқ	2 044 681
6	Ижара тўловлари	73 441
	Вилоят ва туман (шаҳар)лар бюджетлари ўртасида тақсимланадиган даромадлар	**575 312**
1	Бензин, дизел ёқилғиси ва газ реализациясидан солиқ (АЗС)	4 014 950
2	Юридик шахсларнинг мол-мулкига солинадиган солиқ	1 928 133
	ажратма меёри	*10*
	маҳаллий бюджетга	192 813
3	Юридик шахслар ер солиғи	2 876 347
	ажратма меёри	*10*
	маҳаллий бюджетга	287 635
4	Сув ресурсларидан фойдаланганлик учун солиқ	94 864
	ажратма меёри	*100*
	маҳаллий бюджетга	94 864
5	Йиғимлар	1 746 880
III.	**Тақсимланувчи даромадлар (формула бўйича)**	**7 206 160**
	Аҳоли сони (минг киши)	*44,7*
15.	Алкоголга акциз солиғи (шу жумладан пиво)	2 727 410
16.	Мобил алоқага акциз солиғи	1 553 660
17	Тамаки маҳсулоти учун акциз солиғи	2 925 090
	ЖАМИ ХАРАЖАТЛАР	**69 449 159**
	ТРАНСФЕРТЛАР	**46 260 745**

	Жами даромадлар	**23 188 414**
I.	**Рағбатлантирувчи (Стимулирующие) даромад**	**4 990 443**

Халқ депутатлари Янгиер шаҳар
Кенгашининг
2021 йил 30 декабрдаги
VI-48-96-9-132-K/21-сон қарорига
2-илова

2022 йил учун шаҳар махаллий бюджетининг даромадлари ва харажатлари прогнозлари

минг сўмда

Ҳудуд номи	**Даромад ***	**Харажат****
ЖАМИ	**23 188 414,0**	**69 449 159,0**
Янгиер шаҳри	23 188 414,0	69 449 159,0

* Мобиль алоқа хизмати ва алкоголь маҳсулотлари, шу жумладан пиво учун акциз солиғи, тамаки маҳсулотлари тушумларидан ажаратиладиган маблағларни инобатга олган ҳолда

**Давлат тиббий суғурта жамғармасига трансфертлар- Янгиер ш-29 836 047 минг сўм,

Халқ депутатлари Янгиер шаҳар
Кенгашининг
2021 йил 30 декабрдаги
VI-48-96-9-132-K/21-сон қарорига
3-илова

Шаҳар маҳаллий бюджети маблағларини тақсимловчиларга ажратиладиган харажатларнинг умумий чекланган миқдорлари

минг сўмда

№	Кўрсаткичлар	Миқдори
Харажатлар миқдори, Жами		**69 449 159,0**
1	**Халқ таълими бошқармаси**	**5 199 862,0**
	шу жумладан:	
	жорий харажатлар	5 199 862,0
2	**Мактабгача таълим бошқармаси**	**5 535 984,0**
	шу жумладан:	
	жорий харажатлар	5 535 984,0
4	**Соғлиқни сақлаш бошқармаси**	**31 558 569,0**
	шу жумладан:	
	жорий харажатлар	31 558 569,0
7	**Маданият бошқармаси**	**1 001 294,0**
	шу жумладан:	
	жорий харажатлар	1 001 294,0
8	**Туризм ва спорт бошқармаси**	**1 859 277,0**
	шу жумладан:	
	жорий харажатлар	1 859 277,0
9	**Ижтимоий кўникма марказлари харажатлари**	**79 808,0**
	шу жумладан:	
	жорий харажатлар	79 808,0
10	**Ободонлаштириш бошқармаси сақлаш харажатлари**	**5 646 539,0**
	шу жумладан:	
	жорий харажатлар	5 646 539,0
17	**Молия бош бошқармаси**	**7 552 189,0**
	шу жумладан:	
	жорий харажатлар	673 426,0
	Иш ҳақи ва нафақалар миқдорларини ошириш билан боғлиқ харажатлари	6 878 763,0
22	**ветеринария ва чорвачиликни ривожлантириш бошқармаси**	**805 212,0**
	шу жумладан:	
	жорий харажатлар	805 212,0
25	**Бандлик ва мехнат муносабатлари бош бошқармаси**	**612 726,0**
	шу жумладан:	
	жорий харажатлар	612 726,0
30	**Шаҳар ҳокимлиги Бошқарув органлари**	**4 307 098,0**
	шу жумладан:	
	жорий харажатлар	1 845 691,0
	Хоким ёрдамчиларининг сақлаш харажатлари Махаллабай	1 352 971,0
	Халқ депутатлари Кенгаши котибиятини сақлаш харажатлари	185 523,0
	Халқ қабулхонасини сақлаш харажатлари	107 074,0
	Заҳира жамғармаси	655 181,0
	Бошқарув органлар сақлаш харажатлари Маданият	160 658,0
36	**Маҳалла ва оилани қўллаб-қувватлаш бошқармаси сақлаш харажатлари**	**1 694 132,0**
	жорий харажатлар	498 741,0
	шу жумладан:	
	Фуқаролар Ўзини ўзи бошқариш оргшанлари сақлаш харажатлари	1 195 391,0
37	**Бошқа харажатлар**	**3 596 469,0**

	Фуқаролар ташаббус жамхармаси харажатлари	3 275 904,0
	Маҳаллий бюджетларда ҳоким ёрдамчиларининг тавсиялари асосида маҳалла инфратузилмасини яхшилаш учун	320 565,0

Халқ депутатлари Янгиер шаҳар
Кенгашининг
2021 йил 30 декабрдаги
VI-48-96-9-132-K/21-сон қарорига
4-илова

Шаҳар маҳаллий бюджетига ажратиладиган тартибга солувчи бюджетлараро трансфертлар миқдорлари

минг сўмда

Шаҳар ва туманлар	**Тартибга солувчи трансферт миқдори**
ЖАМИ	**46 260 745,0**
шундан	
Янгиер шаҳри	46 260 745,0

Халқ депутатлари Янгиер шаҳар
Кенгашининг
2021 йил 30 декабрдаги
VI-48-96-9-132-K/21-сон қарорига
5-илова

2022 йил учун мол-мулкни ижарага берувчи жисмоний шахслар учун белгиланган ижара тўловининг энг кам ставкалари

№	Ижарага бериладиган мол-мулк тури	Белгиланган ставка миқдорини тавсифловчи кўрсаткич	Ойлик ижара ставкаларининг энг кам миқдорлари, сўмда	
			Гулистон шаҳри	бошқа аҳоли пунктлари
1.	**Уй-жойлар:**			
	турар жой	умумий майдоннинг 1 кв.метри учун	9 000	4 000
	нотурар жой		17 000	7 000
2.	**Автомобиль транспорти:**			
	енгил автомобиль (йўловчилар, багаж ташишга мўлжалланган ҳамда ҳайдовчи ўрнини ҳисобламаганда, ўриндиқлари сони 8 тадан кўп бўлмаган автотранспорт воситаси)	1 та автотранспорт воситаси учун	575 000	
	микроавтобуслар, автобуслар ва юк автомобиллари		1 150 000	

Халқ депутатлари Янгиер шаҳар
Кенгашининг
2021 йил 30 декабрдаги
VI-48-96-9-132-K/21-сон қарорига
6-илова

2022 йил учун товарларнинг айрим турлари билан чакана савдо қилиш ҳуқуқи учун ундириладиган йиғимларнинг чекланган ставкалари

Йиғимларнинг турлари	**Бир ойга чегараланган ставкалар (сўмда)**		
	Гулистон шаҳри	**бошқа шаҳарлар**	**бошқа аҳоли пунктлари**
Алкоголли маҳсулотларни сотиш ҳуқуқи учун ундириладиган йиғим	1 200 000	900 000	700 000
Умумий овқатланиш корхоналари учун алкоголли маҳсулотларни сотиш ҳуқуқи учун ундириладиган йиғим	600 000	500 000	350 000

Халқ депутатлари Янгиер шаҳар
Кенгашининг
2021 йил 30 декабрдаги
VI-48-96-9-132-K/21-сон қарорига
7-илова

2022 йил учун автотранспорт йиғимларининг ставкалари

Т/р	Йиғимлар ва тўловлар турлари	Йиғимлар ставкалари
I	**Чет давлатлар автотранспорт воситаларининг Ўзбекистон Республикаси ҳудудига кирганлиги ва унинг ҳудуди орқали транзити учун йиғимлар**	**АҚШ долларида**
1	Ўзбекистон Республикаси ҳудудига чет эл давлатларидан автотранспорт воситалари кирганлиги ва транзити учун йиғим, битта автоташувчи кирганлиги учун ставкалари (2 — 5 бандларда кўрсатилган мамлакатлар бундан мустасно)	400
2	Тожикистон Республикаси юк автотранспорт воситаларини Ўзбекистон Республикаси ҳудудига олиб кириш ва транзит ҳаракатланганлиги учун йиғимлар:	
	10 тоннагача	100
	10 тоннадан 20 тоннагача	150
	20 тоннадан юқори	200
3	Қозоғистон Республикаси юк автотранспорт воситаларини Ўзбекистон Республикаси ҳудудига олиб кириш ва транзит ҳаракатланганлиги учун йиғим	300
4	Қирғизистон Республикаси юк автотранспорт воситаларини Ўзбекистон Республикаси ҳудудига олиб кириш ва транзит ҳаракатланганлиги учун йиғим	300
5	Туркманистон Республикаси юк автотранспорт воситаларини Ўзбекистон Республикаси ҳудудига олиб кириш ва транзит ҳаракатланганлиги учун йиғимлар:	
	10 тоннагача	50
	10 тоннадан 20 тоннагача	100
	20 тоннадан юқори	150
II	**Автотранспорт воситаларини сотиб олганлик ва (ёки) Ўзбекистон Республикаси ҳудудига вақтинчалик олиб кирганлик учун йиғим**	
1	Янги ҳамда фойдаланишда бўлган автотранспорт воситалари бўйича	харид қилиш нархининг 1 фоизи

Халқ депутатлари Янгиер шаҳар Кенгашининг
2021 йил 30 декабрдаги
VI-48-96-9-132-K/21-сон қарорига
8-илова

2022 йил учун шаҳар бюджетига умумдавлат солиқларидан ажратмалар меъёрлари

(фоиз ҳисобида)

Т/Р	Шахар ва туманлар номи	Жисмоний шахслардан олинадиган мол-мулк солиғи	Жисмоний шахслардан олинадиган ер солиғи	Жисмоний шахсларнинг мулкларни ижарага беришидан олинадиган йиллик даромадлари бўйича декларацияга асосан ҳамда якка тартибдаги тадбиркорлар томонидан тўланадиган даромад солиғи	Қурилиш материаллари бўйича ер қаъридан фойдаланганлик учун солиқ, бунда цемент хом ашёси ва цемент ишлаб чиқаришда фойдаланиладиган оҳактош мустасно	Ижара тўловлари	Сув ресурсларидан фойдаланганлик учун солиқ, бунда электр станциялари томонидан тўланадиган солиқ мустасно	Айланмадан олинадиган солиқ	Юридик шахслардан олинадиган мол-мулк солиғи	Юридик шахслардан олинадиган ер солиғи	Жисмоний шахслардан олинадиган даромад солиғи
1	Янгиер шаҳри	100	100	100	100	100	100	100	10	10	20

Халқ депутатлари Янгиер шаҳар
Кенгашининг
2021 йил 30 декабрдаги
VI-48-96-9-132-K/21-сон қарорига
9-илова

Қишлоқ хўжалиги учун мўлжалланмаган ерлар учун юридик шахслар бўйича 1 гектар учун мутлоқ миқдорда белгиланган базавий солиқ ставкасига киритилаётган камайтирувчи ва оширувчи коэффициентлар

минг сўмда

Т/рҲудуд номи	Коэффициент (0,5 дан 2 гача)	Ер солиғи ставкаси 2022 йил учун (минг.сўм)
1 Т.Малик	1,2	26 400,0
2 З.Бобур	1,2	26 400,0
3 Фазилат	1,2	26 400,0
4 Шукрона	1,2	26 400,0
5 А.Жомий	1,2	26 400,0
6 Бинокор	1,2	26 400,0
7 Давлатобод	1,2	26 400,0
8 Юксалиш	1,2	26 400,0
9 Шодиёна	1,2	26 400,0
10 Марифат	1,2	26 400,0
11 Наврузабод	1,2	26 400,0

Халқ депутатлари Янгиер шаҳар
Кенгашининг
2021 йил 30 декабрдаги
VI-48-96-9-132-K/21-сон қарорига
10-илова

Жисмоний шахслар бўйича (деҳқон хўжалигини юритиш учун берилган қишлоқ хўжалигига мўлжаллаган ерлардан ташқари) мутлоқ миқдорда 1 кв.м. учун белгиланган базавий солиқ ставкаларига нисбатан киритилаётган камайтирувчи ва оширувчи коэффициентлар

сўмда

Т/рХудуд номи	Коэффициент (0,5 дан 2 гача)	Ер солиғи ставкаси 2022 йил учун
1 Т.Малик	1,00	205,0
2 З.Бобур	1,00	205,0
3 Фазилат	1,00	205,0
4 Шукрона	1,00	205,0
5 А.Жомий	1,00	205,0
6 Бинокор	1,00	205,0
7 Давлатобод	1,00	205,0
8 Юксалиш	1,00	205,0
9 Шодиёна	1,00	205,0
10 Марифат	1,00	205,0
11 Наврузабод	1,00	205,0